

Yashil

IQTISODIYOT TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 5



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 228 sahifa.

E'lom qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullo o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqlapog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtalariev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'larning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lum sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyevna	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari	54
Ibdullahayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari	68
Uralov Olimjon Muhammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanova, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xuriniso Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeva	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromodlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'imas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятыова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franchizing roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi.....	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I UCHUN QO'LLANILADIGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING AMALDAGI HOLATI VA TAHLILI

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

PhD, "INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE" instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining davlat budjeti tushumlaridagi o'rni, soliq to'lovchilar sonining o'zgarish dinamikasi, JSHODSnинг yillar kesimida solishtirma stavkalari va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati ko'rib o'tilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilgan va ilmiy qarashlari olib berilgan. Mavzu doirasida tavsiyalar ishlab chiqilgan va xulosalar shaklantirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq Kodeksi, jismoniy shaxslar, daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, YATT, proporsional stavka, progressiv, soliq imtiyozlari, bevosita soliqlar, o'zgarish dinamikasi.

Abstract: In this article, the role of personal income tax in the state budget revenues, the dynamics of changes in the number of taxpayers, comparative rates of personal income tax over the years, and tax benefits for personal income tax are discussed. current status is reviewed. Also, the researches of economists were studied and their scientific views were revealed. Within the topic, recommendations were developed and conclusions were formed.

Key words: Tax Code, individuals, income tax, property tax, land tax, individual entrepreneur, proportional rate, progressive, tax benefits, direct taxes, dynamics of change.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль налог на доходы физических лиц в доходах государственного бюджета, динамика изменения количества налогоплательщиков, сравнительные ставки НДФЛ по годам, а также современное состояние налоговых льгот, применяемых к введенному налог на доходы физических лиц. Также были изучены исследования экономистов и раскрыты их научные взгляды. В рамках темы были разработаны рекомендации и сформированы выводы.

Ключевые слова: Налоговый кодекс, физические лица, налог на прибыль, налог на имущество, земельный налог, индивидуальный предприниматель, пропорциональная ставка, прогрессивный, налоговые льготы, прямые налоги, динамика изменения.

KIRISH

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyotiga xos strategik vazifalardan biri aholining iste'mol talabini rag'batlantirish bilan birgalikda, aholining ma'lum qatlamlari o'tasida daromadlarni tekis taqsimlash vazifasini ham bajaradi. Ushbu ikki muhim vazifani amalga oshirishda soliq mexanizmi elementlaridan foydalilaniladi. Bunda soliqlar bo'yicha belgilangan imtiyozlar tizimi markaziy o'rinni egallaydi. Hozirda "mamlakatda yangi ish o'rinnlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish" masalasi Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 79-maqsadida muhim yo'nalish sifatida belgilab berilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini yanada takomillashtirish va xufiyona iqtisodiyotni kamaytirish orqali budjet daromadlari oshishi natijasida davlatimizda katta iqtisodiy va ijtimoiy tizimli islohotlar amalga oshirilishi maqsad qilib qo'yilmoqda va bu kelajakda O'zbekiston barqaror iqtisodiy o'sish orqali yuqori daromadli mamlakatlar qatoriga qo'shilishga zamin bo'ladi. Iqtisodiy islohatlar sharoitida soliq siyosatidagi islohatlarni amalga oshirishda soliq munosabatlarini takomillashtirish va ochiqligini ta'minlash, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar og'irligi yukini hisoblash va kamaytirish shu bilan birga uning amal qilish mexanizmini ilmiy tahlil qilish muhim va dolzarb muammoli masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadlaridan soliq undirishning nazariy asoslari juda ko'plab xorijlik va mamlakatimizning iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida uzoq yillardan beri o'rganilib kelingan. Xorij iqtisodchi olimlarning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iغا bergan tariflariga to'xtalib o'tsak, J.M.Keyns, D.Lokk, V.Petti² va boshqalarning ilmiy ishlarda keltirilishicha jismoniy shaxslarga progressiv soliq solish eng baland darajada ijtimoiy adolatga erishish va daromadlar o'tasida farqning kamayishi borasida fikrlar yuritilgan. Ammo shu bilan birga, boshqa xorij olimlari, jumladan R.Masgreyy, I.V.Gorskiy, V.G.Panskov³ va boshqalar ta'rif berishicha faqat progressiv shkalani joriy etish muammoning yechimini topishda yagona mazmunga ega bo'lgan harakat bo'la olmaydi deb qarshi fikr bildirishgan.

Yuqoridagi berilgan ta'riflardan xulosa shuni ko'rsatadi, ularning aksariyatida soliqlar aholining shaxsiy daromadlaridan davlat budgetiga tushadigan majburiy to'lovlar sifatida qarashlar shakllangan. Iqtisodiy nazaryalardagi asosiy farq qiluvchi tomoni shundan iboratki, ba'zi mualliflar soliqlarning muntazamligini ta'kidlagan bo'lsa, boshqalari ularning ekvivalentlarsiz to'lov ekanligini qayd etishgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim O.Adurahmonovning fikricha, "jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalentlarsiz majburiy to'lovlardir"⁴. A.V.Vaxobov va A.S.Jo'rayevlarning fikrlariga ko'ra, jahon amaliyotida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun soliq imtiyozları va yuqori daromad oluvchi shaxslar uchun progressiv stavkalar belgilash ham qo'llanadi, ya'ni aholining kam daromad oladigan qismini ijtimoiy himoya qilish maqsadida daromadlarni bir qismi qayta taqsimlanishi e'tirof etilgan⁵. O. Olimjonovning ta'riflashiga ko'ra: "Soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'lariiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir"⁶. A.Adizov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumillashtirilgan holda quyidagicha, "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar-davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdir", deb ta'rif bergan⁷. Demak xulosa qilishimiz mumkinki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i muallifning fikriga ko'ra har bir shaxs davlat oldidagi majburiyati yuqori bo'ladi va shu bilan davlat ham o'z vazfasini majburiylik funksiyasi orqali tartibga solib turadi hamda mazkur majburiyat soliqlar orqali yig'ilgan mablag'larni xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tejamlı sarflash va bu borada to'lovchilarga batafsil ma'lumotlar berib borish lozimligini uqtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, bu – qonun asosida o'rnatilgan miqdorda va muddatda davlat budgetiga jismoniy shaxslarning soliq solinadigan daromadlaridan undiriladigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi hamda muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat shu yo'l bilan milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS / МЕТОДЫ)

Tadqiqotni amalga oshirishda mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan..

TAHLILLAR VA NATIJALAR MUHOKAMASI (ANALYSIS / АНАЛИЗ)

Ma'lumki, soliq qonunchiligidagi soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga. Jismoniy shaxslarga –O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lgan shaxslar kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Izlanishlarmiz natijasida shuning guvohi bo'lyapmizki, jismoniy shaxslar daromad solig'idan tushumlar budgetining soliqli tushumlari qismidagi salmog'i muhimdir. Xususan, 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich 15 %ni tashkil qilgan⁸. Demak, bu vaziyat jismoniy shaxslar daromad solig'inining amaldagi tartiblarib ma'muri-

2 У.Петти (1623 -1687). Главный его труд – “Трактат о налогах и сборах” (1662), Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – М.: Ekonom

3 Панков В.Г. Налоги и налогообложение в Российской Федерации. – М., 2006.;

4 Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini va uni takomillashtirish masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2004.y. 314-bet

5 Soliqlar va soliqqa tortish A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev. –Toshkent. –2009-y.

6 Olimjonov I. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. "Hayot va iqtisod", 1992.

7 Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzod ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.–Toshkent, 2004. –B. - 25.

8 i.f.n Jorilla Xayrullayevich Abdullayevning "Soliq tizimi: muammolar va istiqbollar" nomli maqolasidan (https://www.norma.uz/raznoe/soliq_tizimi_muammolar_va_istiqbollar1).



yatchilikning tashkil etilishiga, o'z navbatida uning bazasini aniqlash tartibi muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlash tartibi davlat budgetining samarali faoliyati uchun ham muhim dastak sanaladi.



1-rasm: Respublika miqyosida 2010–2021-yillarda hisoblangan jismoniy shaxslar daromad solig'ining davlat budgetidagi salmog'i (mlrd so'm)

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra respublikamiz miqyosida hisoblangan jismoniy shaxslar daromad solig'ining 12 yillik (2010–2021-yillar) statistikasi berilgan bo'lib, bunga ko'ra bu soliqning tushumlar ulushi yildan yilga oshib borgan va ayniqsa, 2020–2021-yillardagi salmog'i ancha o'sgan. Biz yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichni 2019-yil soliq siyosatimizda olib borilgan tub islohatlarining natijasi bilan bog'lagan bo'lar edik. Ya'ni, jismoniy shaxslar daromad solig'i oldinlari 4 ta shkalada progressiv stavka asosida hisoblangan bo'lsa, hozirgi paytda proporsional stavkada hisoblanmoqda. Albatta, bu soliq bazasi bilan chanbarchas bog'langan. Shuningdek, respublikamizda jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilar soni ham bu miqdorga ta'sir etuvchi omil sanaladi.



2-rasm: Respublika miqyosida 2017–2020-yillar jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilar sonining o'zgarishi⁹

2-rasmda berilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki jismoniy shaxslar daromad solig'i to'lovchilar soni yildan yilga o'sib borish tendensiyasida rivojlanmoqda ekan, ya'ni 2017-yildagi soliq to'lovchilar sonidan 2010-yildagi soliq to'lovchilar soni qarib 27 %ga oshgan.

Shu nuqtai nazarga ko'ra, jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlash tartibini ko'rib chiqsak. O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslar daromad solig'i obyekti sifatida soliq to'lovchining jami daromadi qaralsa, bazasi esa quydaglar hisoblanadi¹⁰:

9 Manba: jadval O'zR Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

10 O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: –T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020 y.-624 b (366 modda)



- 1) O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq imtiyozlarini hisobga olgan holdagi jami daromadlari;
- 2) O'zbekiston Respublikasining nerezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun soliq imtiyozlari qo'llanmagan holdagi jami daromadlari.

Soliq bazasini aniqlashda soliq to'lovchining ham pul shaklida, ham natura shaklida olgan daromadlari yoki daromadlarni tasarruf etish uchun yuzaga kelgan huquqlari, shuningdek moddiy naf tarzidagi daromadlari hisobga olinadi. Bunda soliq to'lovchining alohida turdag'i daromadlari soliq kodeksida belgilangan shartlarda va tartibda jami daromad tarkibida hisobga olinishi yoki hisobga olinmasligi mumkin.

Soliq to'lovchining chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, haqiqatda daromadlar olingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha milliy valyutaga qayta hisob-kitob qilinadi.

Turli soliq stavkalari bo'yicha solinadigan soliq bazasi alohida aniqlanadi va soliq davri boshidan e'tiboran o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan barcha to'lovlar (ish haqi, premiya, qo'shimcha to'lovlar, kompensatsiyalar va b.) mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi.

- 2) mulkiy daromadlar;

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foiz to'lovlar, dividendlar, mulkni ijara berishdan tushgan daromadlar, mulkni sotishdan olingan daromadlar va boshqa daromadlar kiradi.

- 3) moddiy naf tarzidagi daromadlar;

Moddiy naf tarzidagi daromadlar bo'lib, soliq agenti tomonidan soliq to'lovchi manfaatlarini ko'zlab tovarlar (xizmatlar), mulkiy huquqlar haqini to'lashi, jismoniy shaxsning soliq agenti oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalarini va h.k.

- 4) boshqa daromadlar.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlariga pensiya va nafaqalar, moddiy yordam, yutuqlar va boshqalar kiradi.

Shuningdek, soliq bazasini aniqlashda eng muxim omil hisoblangan imtiyozlar tarkibini ham ko'rib chiqsak. Bunda O'zR soliq kodeksiga ko'ra bu imtiyozlar quydagicha guruhlanadi:

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlashda chegiriladigan soliq imtiyozlarining guruhlanishi¹¹

No	Imtiyoz turi	Imtiyozning qo'llanish jahhalari
1.	Soliq solinmaydigan daromadlar (O'zR SKning 378-moddasi)	Moddiy yordam summalarini; soliq agenti tomonidan yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalarini; o'z xodimlariga hamda ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) stasionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar; vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar va boshqalar.
2.	Jismoniy shaxslarni soliq solishdan ozod etish (O'zR SKning 378-moddasi)	Chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabдор shaxslari, ularning o'zlarini bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'limasa – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha va boshqalar.
3.	Ayrim toifadagi soliq to'lovchilarning jami daromadini kamaytirish O'zR SKning 378-moddasiga asosan soliq to'lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) soliq solishdan ozod etiladi	"O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar; urush nogironlari va ishtirokchilar, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjalarda belgilanadigan shaxslar; bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar; ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limagan bolalari bor yolg'iz onalar; ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'limagan bolalari bor hamda boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar va boshqalar.

11 Manba: O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi asosida muallif tomonidan tuzilgan




1-jadvalda keltirilgan guruhlashtirilgan soliq imtiyozlari respublikamiz soliq tizimida daromad solig'i bazasini aniqlashda eng asosiy chegirmalarni qamrab oladi va soliq to'lovchilarning ijtimoiy himoyasida muhim dastak hisoblanadi.



3-rasm: Respublika miqyosida 2017–2020-yillar undirilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i va taqdirm qilingan imtiyozlarning umumiy summasi (mlrd so'm)

Ko'rib turganingizdek, 3-rasm Respublika miqyosida 2017–2020-yillar undirilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i tarkibida taqdirm qilingan imtiyozlarning umumiy summasi haqidagi statistik ma'lumotlarni mujassamlashtirgan va yildan yilga imtiyozlar o'sayotganligining guvohi bo'lish mumkun.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining bazasi aniqlash jarayonini quyidagi chizma orqali tasvirladik:



4-rasm: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining bazasini aniqlash tartibi¹²

4-rasmga asosan mulohaza qiladaigan bo'lsak, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining bazasini aniqlash jarayonida birinchi qadamda qiladigan ishimiz bu jismoniy shaxslarning jami daromadlarini aniqlab olishdan iborat bo'ladi. Bunda O'zR SKga binoan jismoniy shaxslar jami daromadi to'rt guruxga bo'linadi. Ikkinch bosqichda shu daromadlardan SKga ko'ra soliqqa tortilmaydigan daromadlarni ayrishdan iborat bo'lsa, uchinchi bosqichda esa soliq imtiyozlar miqdorini chegirish kerak¹³.

Guvohi bo'lganiningizdek, yuqorida berilgan jismoniy shaxslar daromad solig'i bazasini aniqlash jarayonida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihatlar bu qanday daromadlar bazaga kiritilgani, qandaylari daromad sifatida tan olinmagani va imtiyozlar ko'lami hisoblanadi.

12 Manba: O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

13 Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. Kasb-hunar kollejлari uchun o'quv-ko'llanma. –T.: ILM ZIYO, 2013. –304 bet.

2-jadval: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining solishtirma stavkalari¹⁴

Eng kam oylik ish haqining darajasi	2014	2015	2016-2017	2018	2019 -2024 yil
1 barobari		0%	0%	0%	12 %*
2 barobari					
3 barobari					
4 barobari					
5 barobari	7,5%	8,5%	7,5%	7,5%	
6 barobari					
7 barobari					
8 barobari					
9 barobari					
10 barobari	16%	17%	17%	16,5%	
10 barobaridan yuqori	22%	23%	23%	22,5%	

Yuqorida keltirilgan 2-jadvaldan xulosa qilishimiz mumkinki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2014-yildan tortib 2018-yilgacha progressiv stavkada undirilgan va soliq stavkasi kamayib va ko'payib borganini ham ko'rishimiz mumkin. 2014-yilda eng kam ish haqining 10 barobaridan yuqori daromad olgan shaxslar 22 foiz daromad solig'ini to'lashgan va bu ko'rsatkich 2015 va 2016-yillarda bir foizga o'sgan va 23 foizni tashkil qilgan. 2019-yildan boshlab soliq tizimida katta o'zgarish bo'ldi sababi soliq kodeksi yangilandi va shu bilan birga soliq turlari va stavkalari ham qaytadan ko'rib chiqildi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv shkaladan proporsional shkalaga o'tkazilganini yuqoridagi jadvaldan ham ko'rishimiz mumkin va 2019 va 2024-yil oralig'ida 12 foiz stavkada undirilib kelayotganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

3-jadval: 2024-yil uchun jismoniy shaxslardan olinagan mol-mulk solig'i stavkalari¹⁵

No	Soliq solish obyektlari	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiylar maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlari, binolar va inshootlar	0,31
	Shaharlarda joylashgan uy-joylar va kvartiralar, umumiylar maydoni	
2.	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,41
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,55
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiylar maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,41
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagisi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlarining soliq bazasini hisoblash tartibi yuridik shaxslar uchun belgilangan tartib bilan bir xillashtirildi.	1,5

Soliq qonunchiligiga 2024-yilda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga¹⁶ muvofiq, jismoniy shaxslarning turar joy fondi obyektlari uchun mol-mulk solig'i stavkalari 2023-yilga nisbatan 11% foizga indeksatsiya qilindi.

Shu bilan birgalikda, soliq yukini adolatli taqsimlash maqsadida, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan tadbirkorlik faoliyati uchun yuridik shaxs yoki YTTga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va/yoki daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk obyektlarining soliq bazasini hisoblash tartibi yuridik shaxslar uchun belgilangan tartib bilan bir xillashtirildi.

14 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

15 422-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28 dekabrdagi O'RQ-891-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 03/23/891/0989-son – 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirgan.

16 <https://t.me/solinqnews/12180>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ayni damda respublikamizdagi ustuvor yo'nalish va vazifalardan biri – bu aholi bandligini ta'minlash, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, mehnatga layoqatlari aholining ilmiy salohiyati yuksaltirish hisoblanmoqda. Iqtisodiyotda daromad shakllarining ko'payib borishi va tadbirkorlik faoliyatining takomillashuvi oqibatida ijtimoiy sohada ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur o'zgarishlar esa ish haqi miqdori va aholining turmush darajasini ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari va albatta, siyosiy hokimiyat bilan uzyvyligini ta'minlab turadi. Bunga misol tariqasida shuni ta'kidlash o'rinniki, so'nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, infliyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshirilganligi va natijada aholining o'z ehtiyojlari doirasidagi xarid qilish qobiliyati barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotganligi kuzatishimiz mumkin.

Davlatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor iqtisodiyotida tadbirkorlikka va daromad topishga yuqori darajadagi erkin sharoit yaratish bilan bir qatorda ushbu daromadlarning qonuniyligini ta'milanishi zarurligini taqozo etadi va bunday tizimni joriy etish orqali fuqarolar daromadlarini hisobga olinishini va to'g'ri soliqqa tortilishini ta'minlash lozim bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yil larga mo'lallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06-22-60-0082-son.
2. Keyns Dj. M. Obshaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. –M.: Ekonov, У.Петти (1623 -1687). Главный его труд – "Трактат о налогах и сборах" (1662).
3. Сводный финансовый баланс государства, Author V., G. Panskov, Publisher, Финансы и статистика, 1987, Length, 157 pages.
4. Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini va uni takomillashtirish masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2004.y. 314-bet.
5. Soliqlar va soliqqa tortish A.V.Vahobov, A.S.Jo'rayev. –Toshkent 2009-y.
6. Olimjonov I. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati. "Hayot va iqtisod", 1992.
7. Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzod ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2004. B. –25.
8. i.f.n Jorilla Xayrullayevich Abdullayevning "Soliq tizimi: muammolar va istiqbollar" nomli maqolasidan (https://www.norma.uz/raznoe/soliq_tizimi_muammolar_va_istiqbollari)
9. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: -T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2020 y.-624 b (366 modda).
10. Xudoyqulov S.K. Soliq tizimi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T.: ILM ZIYO, 2013. 304 bet.
11. 422-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrdagi O'RQ-891-sonli Qonuni tahririda – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023 y., 03/23/891/0989-son – 2024 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.
12. <https://t.me/soliqnews/12180>

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.